

2022-2023 o'quv yili Belorussiyada tehsil olayotgan talabalar o'quv va yashash sharoitlarini o'rghanish bo'yicha xizmat safari amalga oshirildi

2023 yilning 20-23 mart kunlari TKTI rektorining topshirig'iga binoan institut Xorijiy oliy ta'lif muassasalari bilan hamkorlikdagi qo'shma ta'lif dasturlarini muvofiqlashtiruvchi bo'lim boshlig'i Anvar Normamatovich Shernayev hamda institut 1-prorektori Boborajabov Bahodir Nasriddin o'g'li Qo'shma ta'lif dasturi asosida Belorussiya davlatida tahsil olayotgan bir qator talaba-yoshlarni holidan xabar olish 21-mart Navro'z umumxalq bayrami arafasida talabalarga ko'tarinki kayfiyat ulashish hamkorlikda faoliyat yuritayotgan Minsk, Mogilyov kabi yirik shahar oliy ta'lif muassasalari rektorlari, professor-o'qituvchilari bilan kelajakda olib boriladigan izchil hamkorlikni kengaytirish maqsadida...





Talabalar bilan samimiy suhbat tashkil etildi. Yaratilgan imkoniyatlar bilim olishdagi keng sharoitlar va xalqaro maydonlarda institut nomini yuksakka ko'tarish borasida fikr almashildi kerakli tavsiyalar berildi.





Bayram tadbiri avvalida Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorekтор B.N.Boborajabov Toshkent kimyo-texnologiya instituti rektorining bayramona tabrigini o'qib eshittirib, barchani yangilanish va yasharish ayyomi bilan muborakbod etdi.





Tadbir davomida Belorussiya iqtidorli talabalar tomonidan hamda O'zbekistonlik talabalar tomonidan tayyorlangan bayram dasturi namoyish etildi. O'zbek va Belorus kuy-qo'shiqlar, ajoyib raqslar barchaga quvonch ulashdi. Bayram doirasida Navro'zga xos an'analar namoyish etildi.



Betakror lahzalarga boy bo'lgan bayram Toshkent kimyo-texnologiya instituti va Buxoro muhandislik texnologiya instituti barcha talabalari va mehmonlar uchun unutilmas kun bo'ldi.





Tashrif talaba-yoshlar uchun bayramona tadbir tashkil etildi. 21-mart Navro'z bayramiga atab o'zbek milliy taomi bo'l mish osh tayyorlandi.

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha birinchi prorektor B.N.Boborajabov, Xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikdagi qo'shma ta'lim dasturlarini muofiqlashtiruvchi bo'lim boshlig'i A.Shernayevlar Belorussiya davlatiga tashrif buyurishdi...





2023 yilning 22 mart kuni Tashrif davomida Belorussiya Davlat texnologiya universiteti bilan o'zaro hamkorlikni kengaytirish, qabul kvotalari sonini oshirishga doir bir qator shartnomalar imzolandi hamda tajriba almashildi.

Shundan so'ng hamkorlarga Toshkent kimyo-texnologiya instituti rektorining tashakkurnoma hamda esdalik sovg'alari tantanali topshirildi.



